

**Jizzax viloyati adliya boshqarmasi (adliya bo'limlari bilan birga)
tomonidan 2023 yilning 1-choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan
kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish yuzasidan ma'lumot.**

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunini 35-moddasida murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish belgilangan.

Shunga ko'ra, Jizzax viloyati adliya boshqarmasi va uning tizimiga 2023 yilning 1-choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tahlil qilindi. Tahlil statistik hisobot shakllariga asosan o'tkazildi.

Ushbu davrda jami 1858 ta (214 tasi ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotiga oid, 1225 tasi inson huquqlarini himoya qilishga oid, 64 tasi notariat va advokatura faoliyatiga oid, 4 tasi yuridik xizmatlar faoliyatiga oid, 25 tasi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga oid, 175 tasi davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid hamda 151 ta boshqa sohalarda) ariza va shikoyatlar kelib tushgan.

Kelib tushgan **1858** ta murojaatlardan **1713** tasi (**87 %**) ko'rib chiqilib, **1147** tasi (**66,9%**) qanoatlantirilgan, **8** tasi rad etilgan, **558** tasiga huquqiy tushuntirish berilgan.

Kelib tushgan murojaatlardan **52** tasi adliya bo'limlariga (boshqarmadan), **80** tasi boshqa tashkilotlarga taalluqligi bo'yicha yuborilgan, **13** tasi ko'rmasdan qoldirilgan, **110** tasi hisobot davrida qoldiq bo'lib o'tgan.

Murojaatlar shakli bo'yicha tahlil qilinganda **724** tasi og'zaki, shundan **345** tasi sayyor qabullarda, **728** tasi yozma, **406** tasi elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni tashkil qiladi.

Shuningdek, murojaatlarning **1143** tasi shikoyat, **715** tasi arizalarni tashkil etadi.

Kelib tushgan murojaatlarni **300** ga yaqini joyiga chiqqan holda, **170** tasini ko'rib chiqishda mutaxassislar jalb qilingan holda, **500** ga yaqini bevosita murojaat etgan fuqarolar ishtirokida ko'rib chiqilgan.

Murojaatlarning xususiyati bo'yicha tahlil qilinganda, **408** tasi mehnat nizolari, shundan, **227** tasi oylik ish haqini olish masalasida, **49** tasi ta'limga, **86** tasi ijtimoiy himoyaga, **39** tasi uy-joyga, **41** tasi kommunal to'lovlarga, **15** tasi soliq sohasiga, **33** tasi yerga, **23** tasi banklar faoliyatiga, **38** tasi notariatga, **10** tasi advokaturaga, **74** tasi davlat xizmatlarini ko'rsatishga, **2** tasi nodavlat notijorat va diniy tashkilotlar faoliyatiga doir qonun hujjatlari yuzasidan, yuridik xizmatga doir **1** ta, **4** tasi sud qarorlari yuzasidan, **1** tasi prokuratura organlari faoliyatiga oid, **1**

tasi ichki ishlar organlari faoliyatiga doir, **20** tasi adliya organi xodimlari xatti-harakatlari yuzasidan, **317** tasi qonun hujjatlariga tushuntirish berishga oid hamda **696** tasi boshqa masalalar oid murojaatlar.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish qilish, fuqaro va yuridik shaxslarni buzilgan huquqlarni tiklash yuzasidan tegishli idoralarga jami, **364** ta ta’sir choralari kiritildi.

Xususan, **138** ta taqdimnoma, **4** ta ogohnoma, sudlarga **175** ta da’vo arizalari (ariza), **41** ta ma’muriy va **6** ta jinoiy takliflar kiritildi.

Kiritilgan ta’sir choralariga asosan **28** nafar shaxslar intizomiy, **34** nafar shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortildi hamda **9** ta hujjatlar bekor qilindi, **9 915 428 773** so‘m pul mablag‘lari undirildi.

Murojaatlarda tez-tez ko‘tarilgan masalalar tahlil qilinganda mehnat nizolari, shu jumladan, oylik ish haqini olish, ta’lim, ijtimoiy, yerga oid hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasiga oid murojaatlar ko‘pligi aniqlanib, ushbu yo‘nalishlar yuzasidan tegishli tashkilot va idoralar o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish belgilab olindi.

**Rejalashtirish va
nazorat-tahlil sho‘basi**